

приоритетное внимание запуску оптового цифрового сума исключительно для межбанковских расчетов<sup>102</sup>. Согласно результатам анализа видно, что использование смарт-контрактов в данной сфере позволит автоматизировать клиринговые операции и сократить издержки коммерческих банков на 12–15%, что существенно повысит ликвидность системы. Параллельно с развитием государственной цифровой валюты я считаю необходимым создание прозрачной правовой базы для функционирования частных стейблкоинов, привязанных к национальной валюте. В качестве основы я предлагаю использовать принципы американского закона GENIUS Act<sup>103</sup>, установив жесткое требование о 100% резервировании активов на счетах в Центральном банке для обеспечения стабильности и защиты интересов граждан. Реализация этого предложения позволит создать конкурентную среду для финтех-компаний без создания угроз денежно-кредитной стабильности страны.

В ходе исследования мною также была выявлена критическая необходимость синхронизации технологических реформ с развитием физической инфраструктуры и человеческого капитала. Я подчеркиваю, что успешное внедрение предложенной дуалистической модели невозможно без обеспечения гарантированной скорости интернет-соединения не менее 10 Мбит/с в каждом населенном пункте и системной подготовки специалистов в области блокчейн-архитектуры и DevOps-инженерии.

Цифровизация в Узбекистане перешла от внедрения отдельных функций к системной перестройке рынка. Подводя итог исследованию, можно утверждать, что цифровая трансформация финансовых систем вышла далеко за рамки простого внедрения технологических решений. Сегодня это фундаментальный процесс укрепления национального суверенитета и обеспечения конкурентоспособности государства в глобальной экономике. Опыт развитых стран демонстрирует, что успех реформ зависит не только от наличия технологической платформы, но и от способности правительства адаптировать инновации к особенностям общества, соблюдая баланс между прогрессом и социальной стабильностью. Мой основной научный вывод заключается в том, что успех реформ в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» зависит от создания сбалансированной экосистемы, где государственные механизмы (CBDC) обеспечивают безопасность, а частные активы стимулируют инновации.

## **SUG'URTA TASHKILOTLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH**

***Xalikulova Shirin Utkir qizi,**  
TDIU, PhD tayanch doktorant*

***Annotatsiya:** tadqiqotda sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya faoliyatining ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, investitsiya siyosatini takomillashtirish orqali sug'urta kompaniyalarining likvidlilik va rentabellik*

---

<sup>102</sup> Monetary Authority of Singapore (MAS). Smart Nation Strategy: Wholesale CBDC pilot and tokenized deposits. — 2024

<sup>103</sup> GENIUS Act 2025 (U.S. Federal Law on Stablecoin Regulation), July 2025

*ko'rsatkichlarini oshirish hamda moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.*


**Kalit so'zlar:** sug'urta tashkilotlari, investitsiya faoliyati, moliyaviy barqarorlik, likvidlilik, rentabellik, investitsiya portfeli, sug'urta bozori.

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi sharoitida moliya bozori institutlarining barqaror faoliyat yuritishi milliy iqtisodiyotning izchil rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, moliyaviy vositachilar tarkibida sug'urta tashkilotlari alohida o'rin egallab, ular risklarni kamaytirish mexanizmlarini amalga oshirish, moliyaviy resurslar oqimini muvozanatlash hamda iqtisodiy tizim barqarorligini qo'llab-quvvatlash jarayonida faol ishtirok etadi.

Sug'urta kompaniyalari faoliyati davomida shakllanadigan sug'urta zaxiralari hamda boshqa moliyaviy mablag'lar iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiya sifatida yo'naltirilishi mumkin bo'lgan muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Mazkur resurslardan oqilona foydalanish, investitsiya yo'nalishlarini to'g'ri tanlash va kapitalni samarali joylashtirish sug'urta tashkilotlarining daromadlilikini oshirish bilan birga ularning aktivlar tuzilmasini yanada muvozanatli shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada ushbu jarayon sug'urta kompaniyalarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy resurslarni boshqarish jarayoni pul oqimlarini samarali rejalashtirish, investitsiya risklarini diversifikatsiya qilish hamda investitsiya portfelini maqbul darajada shakllantirish tamoyillariga tayanadi.

Sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyati ularning moliyaviy resurslarini samarali joylashtirish orqali qo'shimcha daromad olishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.




**1-rasm. Sug'urta tashkilotlari investitsiya mablag'larini joylashtirish yo'nalishlari<sup>104</sup>**

Sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyati bir vaqtning o'zida ikki asosiy maqsadga xizmat qiladi. Birinchidan, sug'urta zaxiralarning saqlanishini ta'minlash,

<sup>104</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

ikkinchidan esa investitsiya daromadlari orqali moliyaviy natijalarni yaxshilashdir. Shu sababli investitsiya portfelini shakllantirish jarayonida risk va daromadlilik o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim hisoblanadi.

Sug'urta kompaniyalari investitsiya portfeli tuzilmasini o'rganish ularning moliyaviy barqarorlik darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega. Investitsiya aktivlarining tarkibi va ulardagi o'zgarishlar sug'urtalovchilarning moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini hamda risklarni boshqarish darajasini aniqlash imkonini beradi.



### 3-rasm. Sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatini rivojlantirish va ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yo'nalishlari<sup>105</sup>

Shuningdek, investitsiya faoliyatida zamonaviy moliyaviy tahlil usullaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy ko'rsatkichlarni chuqur tahlil qilish, investitsiya loyihalarining rentabelligini baholash hamda prognozlash usullarini qo'llash sug'urta kompaniyalarining investitsiya qarorlarini yanada asosli qabul qilish imkonini beradi.

Quyidagi 2-rasmda 2020–2024 yillarda sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyati tarkibidagi o'zgarishlar aks ettirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, investitsiya portfelida depozitlar asosiy ulushni egallab kelmoqda. Xususan, 2020-yilda depozitlar ulushi 53,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 70,1 foizga yetgan. Bu sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatida likvidligi yuqori va nisbatan past riskli moliyaviy instrumentlarga ustuvor ahamiyat berilayotganini ko'rsatadi.


Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar ulushi tahlil qilinayotgan davrda 28,3 foizdan 19,9 foizgacha kamaygan. Ko'chmas mulk investitsiyalarida ham ayrim tebranishlar kuzatilgan bo'lib, 2024-yilda ularning ulushi 6,9 foizni tashkil etgan. Umuman olganda, sug'urta tashkilotlari investitsiya portfelida konservativ yondashuv ustun bo'lib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida depozitlarga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi oshgan.

<sup>105</sup> Muallif tomonida tuzilgan

## Sug'urtalovchilarining investitsion faoliyati



Sug'urtalovchilarining investitsion faoliyati  
Jami: 3382685 mln. so'm 31.12.2020  
(\*Boshqa investitsiyalar - 0,2%)




Sug'urtalovchilarining investitsion faoliyati  
Jami: 3746676 mln. so'm 31.12.2021  
(\*Boshqa investitsiyalar - 0,1%)



Sug'urtalovchilarining investitsion faoliyati  
Jami: 4751745 mln. so'm 31.12.2022  
(\*Boshqa investitsiyalar - 0,6%)



Sug'urtalovchilarining investitsion faoliyati  
Jami: 6149938 mln. so'm 31.12.2023  
(\*Boshqa investitsiyalar - 0,6%)



Sug'urtalovchilarining investitsion faoliyati  
Jami: 6542568 mln. so'm 31.12.2024  
(\*Boshqa investitsiyalar - 0,1%)

Ko'rsatkich nomi	O'zgarish, %
Jami investitsiyalar	+6,4%
Depozitlar (omonatlar)	+13,5%
Qimmatli qog'ozlar	-4,0%
Zaymlar	+103,6%
Ko'chmas mulk	-16,1%
Tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki	-26,9%
Boshqa investitsiyalar	-75,2%

## 2-rasm. Sug'urta tashkilotlari investitsiya portfeli tarkibidagi o'zgarishlar (2019–2024 yillar)<sup>106</sup>

Tadqiqot natijalari sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Tahlillar investitsiya portfeli tarkibida depozitlar ulushining ortib borishi sug'urta kompaniyalari tomonidan likvidligi yuqori va nisbatan barqaror moliyaviy instrumentlarga ustuvor ahamiyat berilayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, investitsiya yo'nalishlari tarkibidagi o'zgarishlar sug'urta tashkilotlari faoliyatida risklarni kamaytirishga qaratilgan ehtiyotkor investitsiya siyosati shakllanayotganini ko'rsatadi.

Mazkur sharoitda investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish, zamonaviy moliyaviy tahlil va risk-menejment usullarini qo'llash sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda ularning investitsiya faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Glazkova G.V. "Povyshenie effektivnosti upravleniya finansovymi resursami straxovyx organizatsiy": kand. ekon. nauk. – Moskva, 2002.
2. Shaxov V.V. "Straxovanie": darslik. – Moskva: YUNITI-DANA, 2000. – 511 b.
3. Balabanov I.T. "Straxovoe delo": darslik. – Sankt-Peterburg: Piter, 1999. – 384 b.

<sup>106</sup> O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

4. Fedorova T.A. "Straxovanie": udarslik. – Moskva: Ekonomist, 2001. – 432 b.
5. Suxov V.A. "Finansi straxovyx organizatsiy". – Moskva: Finansy i statistika, 2000. – 368 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. Sug'urta bozori statistik ma'lumotlari <https://napp.uz>

## **TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA MOLİYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Xudoyberdiyeva Xilola Himmatovna**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi (PhD)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada turizm sohasini rivojlantirishda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda turizm industriyasini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy shakllari, investitsiya jarayonlarini rag'batlantirish omillari hamda sohani rivojlantirishda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari yoritilgan. Muallif turizm sohasini barqaror rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi, investitsiya faoliyatini kengaytirish hamda innovatsion moliyalashtirish instrumentlarining ahamiyatini asoslab beradi. Maqolada turizm sohasida moliyalashtirish tizimini takomillashtirish orqali infratuzilmani rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish va hududiy turizm salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm sohasi, turizmni rivojlantirish, moliyalashtirish mexanizmlari, investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik, turizm infratuzilmasi, moliyaviy resurslar, turizm iqtisodiyoti.

Hozirgi globallashuv sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turizm iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish hamda milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga xizmat qiladi. Shu sababli ko'plab mamlakatlarda turizmni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda<sup>107</sup>.

Turizm sohasining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan samarali moliyalashtirish tizimining mavjudligiga bog'liq. Xorijiy olimlardan Dwyer va Forsyth turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda xizmatlar sifatini oshirishda investitsiyalarning muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar<sup>108</sup>. Shuningdek, Hall turizm sohasida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda innovatsion moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil ekanligini qayd etadi<sup>109</sup>.

Rossiyalik olimlar ham turizm sohasining rivojlanishi moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va investitsion jarayonlarni rag'batlantirish bilan chambarchas bog'liqligini qayd etadilar. Xususan, Aleksandrova<sup>110</sup> hamda Kvartalnov<sup>111</sup> turizm

---

<sup>107</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-4861-son. O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida – Toshkent, 2016.

<sup>108</sup> Dwyer L., Forsyth P. International Handbook on the Economics of Tourism. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2017. – 512 p.

<sup>109</sup> Hall C.M. Tourism Planning: Policies, Processes and Relationships. – Harlow: Pearson Education, 2019. – 320 p.

<sup>110</sup> Aleksandrova A.Yu. Mejdunarodnyy turizm: uchebnik. – Moskva: KnoRus, 2018. – 352 s.

<sup>111</sup> Kvartalnov V.A. Turizm: uchebnik. – Moskva: Finansy i statistika, 2019. – 400 s.